



YEVRO-ATLANTIK VA GLOBAL JANUB (G7 HAMDA BRICS): O'ZARO QARAMA-QARSHILIK VA TAFOVUT

Mamatqulov Sardor Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Xalqaro iqtisodiy bloklar, G7 va BRICS tashkilotlar, ularning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati, Yevro-Atlantika va Global Janub o'rtasidagi o'zaro raqobat.

Kalit so'zlar: G7, BRICS, Global Janub, Yevro-Atlantika, iqtisodiy ko'rsatkichlar, demokratiya indeksi, korrupsiya darajasi.

I. G7 qanday tashkilot?

Tarixiy eskolatsiyasi. G7 sanoatlashgan demokratik davlatlar - AQSh, Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya va Buyuk Britaniyaning norasmiy bloki bo'lib, har yili global iqtisodiy boshqaruvi, xalqaro xavfsizlik va energiya siyosati kabi masalalarini muhokama qilish uchun yig'iladi. Qo'shma Shtatlar, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va G'arbiy Germaniya 1975-yilda antikommunistik kuchlarning inflyatsiya va neft eksporti embargosi sababli sodir bo'lган retsessiyani o'z ichiga olgan dolzarb iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun Otililik guruhini tuzdilar. Bu boshlang'ich guruh tezda kengayib, o'sha paytdagi eng yirik kommunistik tizimdan holi bo'lган rejimlarning iqtisodiy blokini mustahkamladi. Urushdan keyingi yuksalishidan foyda ko'rayotgan sanoati rivojlangan mamlakatlar sifatida ular iqtisodiy dominantlar bo'lib, o'sha davr uchun G7 mahsulotlari tarixan jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 40 foizini tashkil qilgan. G7 ning asl maqsadi Bretton-Wuds valyuta tizimining qulashi va G'arb mamlakatlarida inflyatsiya va ishsizlik darajasining o'sishida aks etgan 1970-yillardagi iqtisodiy noqulaylikdan kelib chiqqan. 1975-yilda Germaniya kansleri Helmut Shmidt G'arb ittifoqchilar o'rtaida hamkorlikda iqtisodiy konferensiya o'tkazish tarafdori bo'ldi, natijada 1975-yil noyabr oyida Fransiyaning Château de Rambouillet saroyida G7 birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Iqtisodiy sammitning ahamiyati keyinchalik a'zo davlatlar rahbarlari o'rtaida samarali yuqori darajadagi muhokamalarda o'z aksini topdi, bu esa keyingi bir necha yil davomida G'arb iqtisodiyoti 1970-yillarning ikkinchi yarmida boshdan kechirayotgan inflyatsiya muammolarini barqarorlashtirish bo'yicha strategiyalarni muvofiqlashtirishga yordam berdi. Ushbu sammitlarning zamirida 1945-yildan keyingi G'arb tartibotini shakllantirgan va qo'llab-quvvatlagan xalqaro iqtisodiy tuzilmalardagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar tashkil etdi. Ishsizlik va inflyatsiya sur'atlarining o'sishi bilan bir qatorda, 1971- va



1973-yillarda Bretton-Wudsning tugashi va neft embargosi natijasida yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy beqarorlik tufayli iqtisodiy munosabatlar pasayib ketdi, blok esa bu muammolarni bartaraf etish lozim edi. U nafaqat iqtisodiy muvofiqlashtirish mexanizmi, balki xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun 1970-yillardagi tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan siyosiy tanazzullarni bartaraf etish uchun tuzilgan.

Rossiyaning qo'shilishi. Sovuq urush siyosati bu davrda guruhning kun tartibidagi mavzulardan biri bo'lgan. Rossiya forumga 1998-yildan 2014-yilgacha, blok Sakkizlik Guruhi (Katta Sakkizlik) nomi bilan mashhur bo'lgan davrda a'zo bo'lgan, biroq Ukrainianing Qrim mintaqasini anneksiya qilganidan keyin faoliyatini to'xtatilgan edi. AQSh prezidenti Bill Clinton Rossiyanı eksklyuziv klubga qabul qilish orqali mamlakatga xalqaro obro'-e'tibor olib kelish va postsoviet rahbari Boris Yel'sinni G'arb bilan yaqinroq munosabatda bo'lishga undashni maqsad qilgan edi. Clinton, shuningdek, NATO xavfsizlik alyansi Sharqiy Yevropadagi sobiq sovet mamlakatlari uchun eshiklarini ochar ekan, a'zolik Rossiyanı tinchlantirishga yordam beradi deb hisoblagan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yoki Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotidan (NATO) farqli o'laroq, G7 nizom va kotibiyatga ega rasmiy muassasa emas. Har yili a'zo davlatlar o'rtaida almashinadigan raislik, sammitning kun tartibidagi mavzusini va sammit o'tkaziladigan joyni belgilash ma'suliyatini yuklaydi.

G7 sammitlarining dastlabki to'rtligi asosan beshta iqtisodiy yo'naliш – makroiqtisodiy siyosat, savdo, pul-kredit siyosati, global Shimol-Janub munosabatlari va energetika masalalari bilan shug'ullangan bo'lsa, keyingi sammitlar kengayib, jahon voqeliklarini keng ko'lamli muhokama qildi. 1980-yillardan G7 ko'proq tashqi siyosat masalalarini o'z ichiga ola boshladi.

Geosiyosiy ahamiyati. Ba'zi tadqiqotchilar G7 ning global ta'sirini yo'qotib borayotganini ta'kidlaydilar. 2021-yilda Financial Times jurnalisti Gideon Rachman "Katta yettilik endi jahon iqtisodiyotining ko'p qismini ifodalamasligini hamda blok asosan Yevro-Atlantika mintaqasi bilan cheklangan" ini qayd etib o'tadi. Ammo blok a'zo bo'lmagan davlatlarni ba'zan G7 uchrashuvlarida qatnashishga taklif qiladi. Yangilangan hamkorlik belgisi sifatida G7 2021-yilgi sammiti oldidan korporativ soliqqa tortish bo'yicha global qoidalarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha tarixiy kelishuvga erishdi shuningdek, Ukrainianadagi urushiga javoban Rossiyaga qarshi muvofiqlashtirilgan sanksiyalar, jumladan, Rossiya nefti narxini cheklashni joriy qildi. Xitoyning "Bir kamar va yo'l" tashabbusiga alternativa sifatida yirik global infratuzilma dasturini ishga tushirmoqchi. Iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi, sun'iy intellekt va yadroviy qurollar kabi bir qator muammolar 2023-yilda Yaponianing Xirosima shahrida bo'lib o'tgan sammitning kun tartibida turdi.

Blok tarafdarlarning ta'kidlashicha, forumning ixcham va nisbatan o'xshash siyosiy tizimi jamoaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradi, biroq tanqidchilar uni



a'zolar sonining kamligi, global boshqaruv qo'mitasi sifatida harakat qila olmasligini ta'kidlashadi.

Xulosa:

1. G7 - ilg'or demokratik davlatlarning norasmiy guruhi bo'lib, har yili global iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va boshqa transmilliy muammolarni hal qilish uchun yig'iladi.
2. Rossiyaning a'zoligi 2014-yilda Qrimning anneksiya qilinishi sababli to'xtatilgan edi.
3. Ichki bo'linishlar va G20 kabi muqobil institutlarning kuchayishi tufayli ba'zi ekspertlar G7 ning ahamiyatiga shubha qilmoqda.

II. BRICS qanday tashkilot?

BRICS evolyutsiyasi. BRICS g'oyasi Goldman Sachs kompaniyasining bosh iqtisodchisi Jim O'Nil tomonidan 2001 yilda "Yaxshiroq global iqtisodiy BRICS qurish" nomli tadqiqotida ishlab chiqilgan. U iqtisodiy, moliyaviy, biznes, akademik va media doiralarida tahliliy kategoriyaga aylandi. 2006 yilda kontseptsianing o'zi Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoyning tashqi siyosatiga kiritilgan guruhga asos bo'ldi. 2011-yilda Uchinchi sammit munosabati bilan Janubiy Afrika BRICS qisqartmasini qabul qilgan guruhga kirdi.

BRICSning iqtisodiy salmog'i, albatta, katta. 2003-yildan 2007-yilgacha bo'lgan davrda to'rtta davlatning o'sishi jahon yalpi ichki mahsuloti kengayishining 65 foizini tashkil etdi. Xarid qilish qobiliyati pariteti nuqtai nazaridan, BRIKS yalpi ichki mahsuloti bugungi kunda AQSh yoki Yevropa Ittifoqinikidan oshib ketgan. Ushbu mamlakatlardagi o'sish sur'atlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun, 2003-yilda BRIC mamlakatlari jahon yalpi ichki mahsulotining 9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilda bu ko'rsatkich 14 foizgacha o'sdi. 2010-yilda barcha beshta davlatning (JARni o'z ichiga olgan) yalpi ichki mahsuloti 11 trillion AQSH dollarini yoki jahon iqtisodiyotining 18 foizini tashkil etdi. YaIMni xarid qobiliyati pariteti bo'yicha hisobga olsak, bu ko'rsatkich yanada yuqori: 19 trillion AQSh dollari yoki 25%.

Institutsional aspektlari. Guruh sifatida BRICS norasmiy xususiyatga ega. Unda ustav yo'q, u qat'iy kotibiyat bilan ishlamaydi va o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun mablag'ga ega emas. Oxir oqibat, mexanizmni ushlab turadigan narsa uning a'zolarining siyosiy irodasiga borib taqaladi. Biroq, BRICS institutsionalizatsiya darajasiga erishgan, bu besh mamlakat o'zaro hamkorlikni faollashtirishi bilan belgilanadi.

BRICSning vertikal institutsionallashuvini kuchaytirishning muhim bosqichi 2009-yil iyun oyidan boshlab Yekaterinburg sammitining davlat/hukumat rahbarlari darajasidagi siyosiy hamkorlikdan boshlanadi. Uchinchi sammit (2011-yil 14-aprelda Xitoy) BRICSning xalqaro maydonda muloqot va konsensus platformasi sifatidagi pozitsiyasini mustahkamladi. Bundan tashqari, u beshta davlatning global



kun tartibidagi masalalar, xususan, iqtisodiyot va moliya bilan bog'liq masalalar bo'yicha ta'sirini kengaytirdi va qishloq xo'jaligi, energetika, ilm-fan va boshqa sohalar kabi strategik tarmoqlarda aniq qo'shma loyihalarni aniqlash va rivojlantirishga siyosiy turtki berdi. To'rtinchi sammit 2012-yil 29-martda Nyu-Dehlida, beshinchi sammit esa 2013-yil 27-martda Janubiy Afrikaning Durban shahrida bo'lib o'tdi.

Vertikal institutsionalizatsiyadan tashqari, BRICS o'z doirasiga bir nechta harakat dasturlarini qo'shib, gorizontal institutsionalizatsiyaga ham yo'l ochidi. Guruhning faoliyati davomida iqtisodiy-moliyaviydir sohasi eng rivojlangan jahbalaridan biri bo'ldi. Moliya sohasiga mas'ul vazirlar va Markaziy banklar rahbarlari tez-tez uchrashib turdi. BRICSning xavfsizlik masalalari bo'yicha mas'ul yuqori mansabdor shaxslari allaqachon ikki marta uchrashgan.

BRICS G7 mamlakatlariga muqobil sifatida qaraladi, ular o'zlarini global boshqaruva arxitekturasida hal qiluvchi omil va "Global Janub" ovozi sifatida ko'rsatayotgan, G'arbg'a iqtisodiy va siyosiy alternativa tarafdorlari bo'lgan beshta eng dinamik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni birlashtiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilga kelib BRICSning besh a'zosi sayyoramiz aholisining 42 foizini, jahon yalpi ichki mahsulotining 24 foizini va global o'sishning 16 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Ushbu raqamlarni hozirgi global iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqish kerak bo'lsa-da, bu davlatlar strategik tabiiy resurslarga boy, sayyoramizdagi eng katta bioxilma-xillikka ega hisoblanadi. Ammo, Oliver Stuenkelning so'zlariga ko'ra, "turli xil siyosiy tizimlar, iqtisodiy xususiyatlар va geosiyosiy raqobatlarga qaramay, BRIKS a'zolari AQShning xalqaro liberal tartibiga va bir qutblilik fenomeniga tahdid solayotganiga shubha bilan qarash mumkin" ligini ta'kidlaydi.

Saudiya Arabiston, BAA va Misr va yana bir necha davlatlar (G'arb dunyosining an'anaviy hamkorlari) BRICS ga a'zolik uchun ariza topshirishdi, shuningdek, tashkilotning yetakchi iqtisodiyotga ega davlatlarni faol jalb qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bundan tashqari, BRICS a'zolarining kengayish to'g'risidagi qarori, Ukraina urushidan keyin NATO ittifoqining kengayish harakatlari bilan bir paytda qabul qilingani qiziq. BRICS a'zolari o'zaro savdolarida milliy valyutalardan foydalanish yoki savdoda AQSh dollaridan vos kechish, iqtisodiy ta'sirlarni kengaytirish masalalarini kun tartibiga qo'yishmoqda.

Asosiy muammolar.

BRICS oldidagi eng katta muammolardan biri bu umumiy mafkura yoki umumiy siyosiy qadriyatlarning yo'qligidir. Ulardagi tarixiy sivilizatsiyalar ham turlichadir. Blok asosan pragmatik va konyunktural sabablarga ko'ra tashkil etilgan. A'zolar o'rtasidagi kompleks konfliktlarning mavjudligi, blok kengaygan taqdirda ular o'rtasidagi tortishuv va shubha yanada kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, BRICS muvaffaqiyati va samaradorligiga yana bir to'siq - bu unga a'zo davlatlarning turli geosiyosiy manfaatlaridir. Umumiy ma'noda G'arb



gegemonligiga qarshi birlashish bo'lsada, lekin oxir-oqibatda ular nima istayotgani borasida adekvat kelishuv yo'q. Blok G'arb gegemonligiga qarshi iqtisodiy va siyosiy hamkorlik qilsada, Xitoy, Rossiya va Hindiston kabi ba'zi a'zolar Osiyo va Afrikada bir-biri bilan raqobatlashadi. Hindiston va Xitoy kabi blokning ba'zi a'zolari bo'lsa bir-biriga nisbatan dushmanlik kayfiyatlarini saqlab qolgan.

Uchinchidan, G'arb dunyosida muammolar kuchayib borayotganiga qaramay, G'arb davlatlari global iqtisodiy va siyosiy muammolarga hali ham chidamliroq ya'ni, BRICSning G'arb bilan raqobatda g'alaba qozonishi oson bo'lmaydi.

BRICS "global gegemonlikka da'vo qiladi", deb aytishga menimcha, hali biroz erta. Balki tez orada biz BRICS ni G'arb iqtisodiy tizimi va geosiyosiy gegemonligiga haqiqiy muqobil sifatida ko'rshimiz ehtimoldan yiroq emas.

III. G7 va BRICS: qiyosiy tahlil.

Ta'lif sohasida Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (PISA) talabalarni baholash dasturi vaqtı-vaqtı bilan 15 yoshli o'quvchilarni o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha sinovdan o'tkazadi. Xitoy G7 va BRICS davlatlari ichida yuqori ko'rsatkichni ega. G7 davlatlari o'quvchilarining umumiy bilim ko'rsatkichlari Rossiya va Braziliyadan ustun. Hindiston va Janubiy Afrika esa PISA testlarida qatnashmaydi (avval past ball olgan).

Jamoat salomatligi. Tug'ilishda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi G7 davlatlarining har birida BRICSga qaraganda yuqoriligicha qolmoqda. G7 aholisining o'rtacha umr ko'rish muddati 81 yilni tashkil etadi, BRICS mamlakatlarida esa 70 yil. Biroq, bu bo'shliq kelgusi yillarda yanada qisqarishi mumkin, chunki sog'liqni saqlash natijalarini yaxshilanmoqda.

Demokratiya va erkinlik. Gothenburg universiteti qoshidagi Demokratiya instituti tomonidan demokratiya holati 0 dan 1 gacha bo'lgan umumiyligi indekslar asosida baholanganda BRICS demokratiyasining hech biri G7 mamlakatlariga yaqin ballga ega emas. Xususan, Hindistonda Narendra Modining hinduiylik millatchiligi ostida 2016-yilda 0,5-dan 2022-yilda 0,3-ga tushib ketgandi. Rossiya va Xitoy reytingning eng quyi pog'onasida. G7 uchun o'rtacha ball 0,77 ni tashkil qilsa, BRICS uchun esa 0,31 ball qiymatga ega. Freedom House ham xuddi shunday baho beradi. 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha uning o'rtacha balli G7 uchun 92, BRICS uchun 49 ball.

Korrupsiya, tengsizlik, qonun ustuvorligi. Transparency International hamda Gallup hisobotlariga ko'ra BRICS davlatlari ko'proq korrupsiyalashgan. Xususan, G7 respondentlarining 61 foizi korruptsiyani davlatlarida keng tarqalgan deb hisoblashadi, BRICSda bu ko'rsatkich 76 foiz. World Justice Project Qonun ustuvorligini (0 dan 1 gacha) 44 ta indikatorlardan foydalangan holda hukumat vakolatlaridagi cheklar, korruptsianing yo'qligi, ochiq hukumat, insonlarning asosiy huquqlari, tartibot va xavfsizlik, fuqarolik va jinoiyat sudlarining adolatliligi sohalarida tadqiq qilganida G7 uchun o'rtacha ball 0,76 ni tashkil qiladi, boshqa uchta BRICS (Rossiya va Xitoydan tashqari) uchun 0,5 ballni qayd etgan.



Xulosa qilib aytganda, G7 hukumatlari nafaqat o'z fuqarolariga jon boshiga yuqori daromad, balki uzoq umr, yaxshi ta'lim, izchil demokratik islohotlar va erkinlik, korrupsiyaning kamligi, tenglik va yanada mustahkam qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga BRICS davlatlari iqtisodiy o'sish va xalqaro munosabatlardagi geosiyosiy usvorligi boshqa davlatlarning qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The contemporary role and perspectives of the BRIC States in the World-Order, Petar Kurecic, Goran Bandov;
2. <https://www.cfr.org/backgrounder/what-does-g7-do>;
3. <https://blogs.lse.ac.uk/lseih/2022/04/06/the-g7-in-a-modern-era-a-necessary-repurposing/>;
4. <https://valdaiclub.com/a/highlights/brics-political-and-geopolitical-challenges/>;
5. BRICS and the World Order, Suresh P Singh.